

EXPERIMENTAL PSYCHOLOGICAL STUDY OF SENSE OF TOLERANCE IN PERSONS

D. Shokirov

Teacher of the Department of Applied Psychology
Kokand State Pedagogical Institute Republic of Uzbekistan

ABSTRACT

In this article, the main goal of studying the problem of tolerance is to educate the growing generation in the spirit of peace, cooperation, and respect for the rights and freedoms of others.

Keywords: tolerance, perfect generation, humanity, value, person, society, direction, moral qualities.

SHAXSLARDAGI TOLERANTLIK HISSINI EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIK JIHATDAN O'RGANLISHI

D.Shokirov

Amaliy psixologiya kafedrası o'qituvchisi
Qo'qon davlat pedagogika instituti O'zbekiston Respublikasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tolerantlik muammosini o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad – o'sib kelayotgan avlodni tinchlik, hamkorlik, boshqalarning huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash haqidagi tushunchalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tolerantlik, barkamol avlod, insoniyat, qadriyat, shaxs, jamiyat, yo'nalganlik, axloqiy fazilatlar.

Tolerantlik masalalari insoniyatni azal-azaldan o'ylantirib kelayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Tolerantlik muammosini o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad – o'sib kelayotgan avlodni tinchlik, hamkorlik, boshqalarning huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat.

Tolerantlik bu – boshqa qarashlar, mantiqni qabul qilishga tayyorlik, individuallik huquqi, shaxs va jamiyat sistemasini ichidan muvozanatlashtirib turuvchi faktordir. Tolerantlik qadriyat, shaxsiy ustanovka va xususiyat sifatida baholanadi.

“Tolerantlik” – hozirgi kunda zamonaviy ijtimoiy-siyosiy, madaniy va huquqiy adabiyotlardagi eng ommabop terminlardan biri. Tolerantlikni aniqlash va uni tatqiq qilishda ko'pgina ijtimoiy yondashuvlar mavjud, biroq bu tushunchaning to'liq psixologik ta'rifi mavjud emas. Hozirgi kunda tolerantlikni psixologik muammo sifatida tatqiq qilinishi dastlabki bosqichni boshdan kechirmoqda.

Yo'nalganligiga ko'ra tolerantlikni quyida turlarga farqlash mumkin:

Tashqi tolerantlik (boshqalarga nisbatan) – shaxsga atrofdagilarning ham shaxsiy qarashlari borligini eslatib turuvchi, shakllangan fikr. Tashqi tolerantlik nizoli vaziyatlarni turli nuqtai nazarlar orqali, boshqa aspect va argumentlarni hisobga olgan holda ko'rish imkonini beradi. Ichki tolerantlik (ichki barqarorlik) – nizoli vaziyatlarda muvozanatni tutib tura olish, qaror qabul qilib unga amal qilish qobiliyatidir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov: «Xalqimizning asl tabiatida bo'lgan, yurtdoshlarimizga xos mehr-oqibatlilik, ahillik, o'zaro hurmat, shafqat va muruvvat kabi buyuk xususiyat va fazilatlarning jamiyatimizdagi o'rnini yanada mustahkamlab, ularni yangi avlod farzandlarimiz ongiga singdirish bugungi va ertangi kunimizni yanada chiroyli etishda, ezgu maqsadlarimizga erishishda eng katta omil va me'zon bo'lishini anglab olishimizga ishonaman.

Bizning maqsadimiz – dunyoning barcha xalqlari bilan teng bo'lib, ularning baxt-saodatidan quvonib, ular bilan do'st va hamkor bo'lib yashash. Unib-o'sib kelayotgan farzandlarimizni ham mana shu ruhda tarbiyalayapmiz», - deb ta'kidlaganlar.

Tolerantlik insonlar, millatlar, ijtimoiy guruhlar, xalqlar va turli diniy e'tiqodlardagi kishilarni bir-biri bilan bog'lab, ular o'rtasidagi munosabatlarda do'stona muhitning yuzaga kelishini va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar taxliliga ko'ra, fanda «bag'rikenglik (tolerantlik)» fenomenining shakllanishida asosiy ulushni faylasuflar qo'shishgan bo'lib, ushbu tushuncha ular qarashlarida (odatda sabr-toqatlilik tushunchasi sifatida qabul qilingan) qator boshqa fenomen va sinonim tushunchalar sifatida talqin etilgan. Jumladan, «qalb ombori» (Aristotel), ijtimoiy birdamlilik (Platon), hamjihatlilik darajasi (G.Leybnits), diniy erkinlikni e'tirof etish (Dj.Lokk), ezgulik (I.Kant), o'zigi xoslik mustaqillik va barcha insonlarni birdek ko'rish yoki anglash (rus faylasuflaridan – N.S.Trubetskoy, I.A.Ilyin, N.A.Berdyaev, V.Solov'ev) va shu kabilar. Zamonaviy falsafa konseptsiyasida bag'rikenglik (tolerantlik) liberalizm muammolari, milliy o'xshashlik va ko'pmadaniyatlilik hodisalari bilan bog'liqlikda o'rganilgan (M.Uoltser, M.B.Xomyakov). Shuningdek falsafa konseptsiyalari doirasida kritik ratsionalizmga kirish asosini tashkil qilish uchun bag'rikenglik (tolerantlik) chegaralari aniqlangan va bag'rikenglik (tolerantlik) paradoksi shakllantirilgan (K.Popper).(33)

Rus psixologlaridan B.G.Anan'ev o'tgan asrning 60-yillarida bag'rikenglik (tolerantlik) atamasidan birinchi bo'lib foydalangan bo'lsa, bu fenomenning ijtimoiy psixologiyasini ilk marotaba Sankt-Peterburglik olimi G.L.Bardier (2007) tadqiq etgan.

Konkret sharoitlarda, ya'ni ijtimoiy voqeliklar va jarayonlar (referent guruhdagi ijtimoiy hamkorlik)da tolerantlikni shaxs faoliyatida tutgan o'rni hamda uning qay tarzda namoyon bo'lishi, shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashga qator olimlar o'z diqqatlarini qaratib kelmoqdalar. Jumladan bunday urinishlarni jahon tan olgan olimlardan V.S.Ageeva, G.A.Andreeva, A.G.Asmolov, A.A.Bodalev, V.L.Vasilev, R.M.Granovskaya, N.V.Grishina, I.N.Gurvich, O.I.Danilenko, A.I.Dontsov, Ye.K.Zavyalova, G.U.Soldatova, T.G.Stefanenko, N.S.Xrustalyova, N.Yu.Xrasheva, V.A.Chiker, E.S.Chugunova va boshqalarning ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin. Ammo diniy bag'rikenglik (tolerantlik)ni psixodiagnostikasi ma'lum tizimga keltirilmagan. Shunday bo'lsada hozirgi kunga kelib tolerantlik hissi darajasini aniqlash uchun turli xil psixologiya metodikalar ishlab chiqarilgan.

“Intolerantlik-tolerantlik” (INTOL) metodikasi:

L.G.Pochebuk tomonidan R.Laykert o'tkazgan Tadqiqotlar asosida yaratilgan bo'lib, shaxsning tolerantlik darajasini aniqlashga qaratilgan. Ushbu holda tolerantlik insonning shunday emottsional holatiki bunda shaxsga boshqa bir insonning xulqi, uning shaxsiy xususiyatlari yoqmaydi va ular shaxsga uchun qabul qilib bo'lmas darajada begona. Biroq shaxs bu holatga nisbatan sabrli munosabatda bo'lib, boshqa bir insonning shaxsiy fikriga hurmat ko'rsatadi.

Metodika 16 ta'kiddan iborat bo'lib, ularning bir qismi tolerantlik darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, bir qismi intolerantlik darajasini aniqlashga qaratilgan. Sinaluvchi har bir ta'kidga taklif qilinayotgan javob variantlaridan biri bilan javob beradi: "qo'shilaman" (+2), "qisman qo'shilaman" (+1), "aytishim qiyin" (0), "qisman qo'shilmayman" (-1), "qo'shilmayman" (-2). Juft savollar tolerantlik shkalasini toqlari esa intolerantlik shkalasini o'rganadi. Har bir shkala bo'yicha natijalar alohida-alohida qayta ishlanadi. Avval "tolerantlik" shkalasi bo'yicha natijalar hisoblanadi (olingan natijaning musbat yoki manfiyligi ham hisobga olinadi), keyin "intolerantlik" shkalasi bo'yicha natijalar hisoblanadi (bunda ham natijaning musbat yoki manfiyligi hisobga olinadi). Keyin ikkala shkala bo'yicha olingan natijalar qo'shiladi.

"Tolerantlik" shkalasi bo'yicha maksimal natija: +16

"Intolerantlik" shkalasi bo'yicha maksimal natija: -16.

"INTOL" ning maksimal indeksi: +32

"INTOL" ning minimal indeksi: -32

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, fuqarolar manfaatining turli-tumanligi sharoitida shaxs, millat va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarda barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim omillaridan sifatida tolerantlikni rivojlantirib borish talab qilinadi. Chunki manfaatlarning turli-tumanligi muayyan ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ziddiyatlar esa turli millatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Barqarorlikning ta'minlanishi har qanday jamiyat va mamlakat uchun katta ahamiyatga ega. Buning uchun esa manfaatlarni muvozanatga keltirish «mexanizmi»ni ishlab chiqish zarur. Ana shunday «mexanizmlar»dan biri shaxslar millatlar, ijtimoiy guruhlar va xalqlar o'rtasida tolerantlikni shakllantirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. – T.: O'zbekiston, 1996. – B.349;
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 3–4;
3. Asmolov A.G. Tolerantnost' kak kul'tura XXI veka // Tolerantnost': ob'edinyaem usiliya. M., Letniy Sad, 2002.
4. Bardier G. L. Sotsial'naya psixologiya tolerantnosti. SPb.: Izd-vo SP6GU.2005
5. Dilmurod, Shokirov. "Socio-psychological influence of hadiths on the formation of religious relations of the person." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.6 (2022): 1021-1025.
6. Yulchiboyeva, Dilduza. "Main tasks of educational processes." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.6 (2021): 23-27.
7. Abdullaevna, Saliyeva Dilorom, and Rakhmonova Ayshakhan Oribovna. "Gender Stereotype In Adolescence The Study Of The Formation Of Properties." *Journal of Positive School Psychology* 6.10 (2022): 3446-3451.
8. Шокиров, Дилмурод. "ШАХС ДИНИЙ МУОСАБАТЛАРИ ШАКЛЛАНИШИДА ҲАДИСЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ТАЪСИРИ." *Central Asian Academic Journal of Scientific Research* 2.6 (2022): 332-336.
9. Akhmedov, B. A., Askarova, M. R., Xudayqulova, F. B., Tojiboeva, G. R., Artikova, N. S., Urinova, N. S., ... & Omonova, S. M. (2022). PEDAGOGICAL SCIENCE EDUCATION

MANEGMENT IN TEACHING SCIENCE OF PEDAGOGICAL SCIENCES. Uzbek Scholar Journal, 10, 529-537.

10. Vladimirovich, G. Y. (2022). PRECEDENT-RELATED NOMINALS: CLASSES AND ORIGINS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 212-217.